

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

N.J.Sulaymanova

DSc., dotsent

Samarqand davlat chet tillar instituti

ИЖОБИЙ БАҲО ПРАГМАТИК MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.15069204>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola baho kategoriyasi semantik jihatdan barcha tillarga xos bo'lgan universal hodisalar qatorida turishini, olamning inson tomonidan idrok etilishi, aslini olganda, hamisha qadriyatlar qimmatini belgilashdan boshlanishini, olam haqidagi bilimni shakllantirish jarayonida inson narsa-hodisalarining o'zi, jamiyat uchun muhim bo'lgan xususiyatlarini tanlab olishini, insonlar hayoti faoliyatiga jalb qilingan obyektlar bevosita qadriyat mazmunini oladi va shu yo'sinda ijtimoiy qiymatga ega bo'lishi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: grammatik va leksik vositalar, omillar, olam lisoniy manzarasi, til birliklari, kategoriya, semantik kategoriya, obyektiv va subyektiv, emotsiya

N.J.Sulaymanova

DSc., associate professor

Samarkand State Institute of Foreign Languages

SPEECH ACTS EXPRESSING THE PRAGMATIC CONTENT OF A POSITIVE ASSESSMENT

ABSTRACT

This very article emphasizes that the value category is semantically among the universal phenomena characteristic of all languages, that human perception of the world, in fact, always begins with determining the value of values, that in the process of forming knowledge about the world, a person selects the properties of objects and events that are important for society, that objects involved in the activities of human life directly receive the content of value and thus have social value.

Key words: grammatical and lexical tools, linguistic landscape, language units, category, semantic category, emotion, objective and subjective factors

Н.Ж.Сулайманова

Самаркандский государственный институт иностранных языков

DSc., доцент

РЕЧЕВЫЕ АКТЫ ВЫРАЖАЮЩИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЙ ОЦЕНКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье утверждается, что категория ценности семантически входит в число универсальных явлений, характерных для всех языков, что восприятие мира человеком, по сути, всегда начинается с определения значения ценностей, что в процессе формирования знаний о мире человек выделяет важные для общества особенности вещей и явлений, что предметы, участвующие в деятельности человеческой жизни, непосредственно получают ценностное содержание и, таким образом, имеют социальную ценность.

Ключевые слова: объективные и субъективные факторы, лингвистическая картина, языковые единицы, категория, грамматический и лексический средства, семантическая категория, эмоция.

Baho kategoriyasi semantik jihatdan barcha tillarga xos bo'lgan universal hodisalar qatorida turishi aniq. Inson kommunikativ faoliyatining har bir jabhasida ijobiy yoki salbiy mezonlarga asoslangan baholash akti sodir bo'lmasdan qolmaydi. Har qanday nutqiy harakat "yaxshi" yoki "yomon" mazmunda voqelanadi. Shuningdek, sifat belgilari ko'pincha "yaxshi" va "yomon" ga ajratiladi hamda olamdagi narsa-hodisalar xuddi shu sifatlarni oladi.

Olamning inson tomonidan idrok etilishi, aslini olganda, hamisha qadriyatlar qimmatini belgilashdan boshlanadi. Olam haqidagi bilimni shakllantirish jarayonida inson narsa-hodisalarining o'zi, jamiyat uchun muhim bo'lgan xususiyatlarini tanlab oladi. Insonlar hayoti faoliyatiga jalb qilingan obyektlar bevosita qadriyat mazmunini oladi va shu yo'sinda ijtimoiy qiymatga ega bo'ladi. Mazkur qiymat qiyoslash, solishtirish va baholash harakatlari negizida amalga oshiriladi.

Baholash ongli ravishda bajariladigan lisoniy faoliyatdir. Bunday faoliyatni atrof-muhit bilan turli munosabatlarga kirishayotgan shaxslar bajarishi mumkin. Olamda o'z-o'zidan yaxshi yoki yomon bo'lgan biron-bir narsa bo'lmas kerak. Insonning hissiyotlari, munosabatisiz biron narsaga baho berib bo'lmaydi. Har qanday narsa-hodisaga baho berish inson va obyekt to'qnashuvida sodir bo'ladigan harakatdir. Baho subyekti uchun muhim, foydali ko'ringan narsagina yaxshi bo'lishi mumkin. Ammo baho turli nuqtayi-nazardan beriladi. Har qanday baholovchi nutqiy aktning voqelanishi obyektning qadr-qiymati, uning alohida shaxs, jamoa yoki umuminsoniyat uchun qadri, muhimligi bilan bog'liq. Ushbu obyekt-subyekt munosabatini belgilovchi mezon albatta yana o'sha "yaxshi-yomon" oppozitsiyasiga borib taqaladi. Natijada, bahoning shakllanishini ta'minlovchi nutqiy aktlar modellari lisoniy jamoa tomonidan yaratiladi.

Baho – oqilona kognitiv faoliyat natijasi sifatida til va nutq tizimlarida o'z ifodasini topadi. Albatta, bahoni ifodalashning eng sodda usuli "Bu - yaxshi" va "U - yomon" gap-hukmlarida aks topadi. Mazkur ko'rinishdagi baholi hukmlar antik davrlardayoq alohida guruhga ajratilib, boshqa turdagi [masalan, tavsiflovchi] gaplarga qarama-qarshi qo'yilgan edi [Avsanova 1975, 27].

Tipik xarakterdagi nutqiy tuzilmalar narsa-hodisalar, ularning xususiyatlariga berilayotgan subyektiv bahoni ifodalashi muqarrar, biroq baho kategoriyasining semantik doirasi keng. Zotan, asl subyektiv baho alohida lug'aviy birliklar vositasida emas, balki aniq nutqiy aktlarda voqelanadi. Shu bois, tilshunoslarning baho - "obyektda ma'lum qadriyatning mavjudligi yoki uning miqdori haqidagi nutqiy tuzilma" [Zubov 1974, 14] deb hisoblashi haqiqatga yaqin. I.V.Gyubenet esa baho ma'nosi ma'qullash va noma'qul topish, ta'qiqlash, qo'llab-quvvatlash kabi munosabatlar bildirilishida ham namoyon bo'lishi mumkinligini qayd etadi [Gyubenet 1973, 18]. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, "yaxshi" bahosi umumiy ko'lamda jamoa va shaxs ehtiyojini qondirish uchun foydali va yetarli bo'lgan, insonlarga xush, yoqimli tuyulgan hodisalarga beriladigan bir paytda, yomon bahosi esa yetuklikka erishmagan, hato va zarar keltiradigan hamda jamoada joriy qilingan axloqiy me'yorlarga mos kelmaydigan narsa-hodisalarga nisbatan qo'llaniladi.

Bahoni ifodalovchi vositalar asosan til tizimiga tegishli bo'lib, ular olam lisoniy manzarasini yaratish va kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Tilshunos olimlar Ye.S.Aznaurova o'z paytida lingvistik bahoni so'zning ma'no strukturasi bilan o'rin olgan va lisoniy jamoaning ma'lum tushuncha va predmetlarga nisbatan munosabatini aks ettiradigan kategoriya sifatida talqin qilishni taklif qilgan edi [Aznaurova 1973, 23].

Boshqa bir guruhdagi tilshunoslarning talqinicha, lisoniy birlikda gnoseologik (olamni bilish bilan bog'liq) va aksiologik (baholash) vazifalari mujassamlashadi. Bizning fikrimizcha, olam manzarasini baholi voqelantirish vazifasini bajarishga tilning barcha sathlariga tegishli birliklar qodir. Zero baho kategoriyasi insonning muloqot maqsadini yuzaga chiqaruvchi nutqiy faoliyatning barcha qirralarini qamrab oladi.

Haqiqatdan ham muloqotga kirishayotgan subyekt ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlaydi va shu maqsad atrofida turli xususiy mazmunlar voqelanadi. Ushbu turdagi mazmunlarning "turlicha ko'rinishlari, ularning darajalanish tasnifi, xabarning ifodalanish darajasi, xabarga so'zlovchi bahosi, xabar vositasi bilan undash munosabati, majburiyat ottenkalari his-tuyg'ularning axloqiy ko'rinishlari, rasmiy va norasmiy munosabat shakllari kabilar nutqiy akti tasniflash zarurligini ko'rsatadi" [Hakimov 2001, 133-134]. Nutqiy aktlarning tasnifi bilan dastavval J.Ostin va J.Syorl shug'ullanishgani barchaga ma'lum. Keyinchalik ushbu muammo bir qator tilshunoslarning e'tiborini tortdi va ular tomonidan turli tasnifiy guruhlar ajratilib, tavsiflandi [Bogdanov 1984; Demyankov 1986; Kobozeva 1986; Susov 2006; Matveeva i dr. 2014; Hakimov 2022].

Nutqiy aktlar nazariyasi rivojiga o'ziga xos ulush qo'shgan o'zbek olimi M.Hakimov nutqiy aktlarni kontekstual hodisa sifatida o'rganish lozimligini qayd etayotib, nutqiy aktlar mazmunan rang-barangligini aytadi va ularning xabar, darak, so'roq, tahdid, iltimos, va'da, minnatdorchilik, qo'rqitish, buyruq, masxaralash, mensimaslik, erkalanish kabi turli mazmuniy strukturalardan tarkib topadi, deb hisoblaydi [Hakimov 2022, 39].

Shu asnoda, tilshunoslarning "nutqiy akt tushunchasi zahirida mavjud jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar va tamoyillarga muvofiq keluvchi maqsadli nutqiy faoliyat yoki harakatlar tushuniladi" [Matveeva i dr. 2014, 56] degan ta'rifga asoslangan holda nutqiy aktlar tasnifida asosiy o'rinni baho mazmuniga moslashadigan aktlar egallamaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Ifodalanayotgan subyektiv munosabatlar nutqiy harakatlarda yo ijobiy yoki salbiy xususiyatga egaligini inobatga olib, baholi xusiyat hamda harakterga ega bo'lgan ushbu nutqiy aktlarni ikkita asosiy sinflarga bo'lib tadqiq qilish maqsadga muvofiq boladi. Hususan, ijobiy hamda baholi tavsiflarga ko'ra tabrik, taklif, minnatdorchilik, maqtash, ma'qullash, maslahat, singari nutqiy aktlarni o'z ichiga olsa, tanbeh, tahdid, haqorat, kinoya, maqtanchoqlik salbiy turga mansub ekanligini bildiradi.

Kompliment bildirish maqtovli bahoni nutqiy ifodalashning bir ko'rinishidir. "O'zbek tili izohli lug'ati"da izohlanayotganidek, maqtov – maqtab aytilgan so'z, gap bo'lib, biron kishi, narsa-hodisa to'g'risida ijobiy fikr bildirish, ma'qullashning namunasidir [O'TIL, 2-jild: 570]. So'zlovchining maqtov aktidan foydalanishdan asosiy maqsadi shuki, obyektiv nutq haqidagi ijobiy hususiyatga ega bo'lgan bahoni ifodalashdir. Masalan:

You got to start politics on a local level, Rudy, and right here in this town you're yeverybody's fair-haired boy [I. Show];

I like you, are modest and unassuming you have not the arrogance of your countrymen, and I'm sure that you will take my advice [S. Maugham].

- Qayg'urma, Oftob, - dedi, kuyaving bunchalik suluv bo'lsa, gap-so'zda tengi bo'lmasa, hali chimildiqda qizingning pechak guldek bo'lib eriga chirmashqanini ko'ramiz.

- Oh, opajon, - dedi umidsiz oyim, - manim bunga ko'nglim chopmaydir.

- Chopsin, Oftob [Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar].

Quyidagi keldirilgan namunalarda so'zlovchiga tegishli bo'lgan nutq tinglovchisiga nisbatan ijobiy holatdagi munosabati ko'rsatmoqda va shu bilan birga ush ko'rinishdagi bahoni ko'rsatuvchi akt so'zlovchining xursand holatda ekanligini, ma'qullashi va harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyot hamda tuyg'ularini ifoda ettiradi.

Ma'lumki, maqtov nutqiy akti bajarilishida asosan so'zlovchi tomonidan ma'qullangan xatti-harakatlar, nutq obyektining ijobiy sifat-belgilari ta'riflanadi. Bunda baho, odatda, ta'riflanayotgan kishining shaxsiy xislatlari, xulqi, bajaradigan xatti-harakatlari va axloqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Qiyoslang:

Listen, why don't you get away for a while, get yourself down to the sea, this altitude drives us all quietly crazy. You get down off the altitude for a bit [D. Lessing];

“Xullas, men No‘mon Dolimovning tug‘ma geograf ekanini, ko‘p yillardan buyon geografiya fakultetiga rahbarlik qilib kelishini bilganimdan keyin shunday odam bilan tanishligimdan, bir vaqtlar uning bir koriga yaraganimdan juda faxrlanib ketaman. Men, albatta, No‘mon akaning olim sifatidagi iqtidori qanday ekaniga baho berolmayman – bunga menda ma‘naviy huquq yo‘q. Shunday bo‘lsa ham aytamanki, u juda yaxshi, sara geograflardan bo‘lgani aniq. Uni geografiya fakultetidagi hamkasblari juda hurmat qilar va uning to‘g‘risida og‘izlaridan bol tomib gapirishar edi” [O.Sharafiddinov. Domlalar].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hakimov M. Nutqiy akt nazariyasi // Farg‘ona pragmalingsvistika maktabi. – Farg‘ona: FarDU, 2022. – 120 b.
2. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filol. fan. dokt.... diss. – T., 2001. – 30 b.
3. Авсанова Н.А. Синтаксические конструкции оценочной семантики. Автореф. дисс.... канд. филол.наук. – М.: 1975. – 27 с.
4. Азнаурова Э.С. Очерки по стилистики слова. – Т.: Фан, 1973. – 23 с.
5. Богданов В.В. Классификация речевых актов // Личностные аспекты языкового общения. – Калинин, 1984. – 25-37 с.
6. Богуславский В.М. Оценка внешности человека: словарь. – Москва – Харьков, 2004. – 254 с.
7. Гюббенет И.В. Проблема словесной реакции на ситуацию (на материале прилагательных английского языка). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М.: 1973. – 25 с.
8. Демьянков В.З. “Теория речевых актов” в зарубежной лингвистике. Вып. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – 223-235 с.
9. Зубов А.А. О языковых способах выражения категории оценки в современном английском языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – М.: 1974. – 26 с.
10. Кобозева И.М. “Теория речевых актов” как один из вариантов теории речевой деятельности // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – 7-21 с.
11. Матвеева Г.Г., Ленец А.В., Петрова Е.И. Основы прагмалингвистики. – М.: Наука, 2014. – 11 с.
12. Сусов И.П. Лингвистическая прагматика. – Винница, 2006. – 138 с.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000